“O‘ZKIMYOSANOAT” AJ VA OILA VA XOTIN-QIZLAR KO‘MITASI O‘RTASIDA HAMKORLIK MEMORANDUMI IMZOLANDI

// 18.09.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-oila-va-xotin-qizlar-ko-mitasi-o-rtasid

Bugun “O‘zkimyosanoat” AJda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Ozoda Parpibayeva, jamiyat rahbariyati hamda xotin-qizlari ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Unda tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, tizimda gender tenglikni ta’minlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

Ma’lumki, bugungi kunda tizim korxonalarida 9620 nafar, markaziy apparatda 38 nafar xotin-qizlar mehnat faoliyatini olib boradi. Jamiyat boshqaruv raisi o‘rinbosari Akbar Qurbonov 10 mingga yaqin ayol ishchi-xodimlarning tizimda tutgan o‘rnini alohida ta’kidlab, mamlakatimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ayollar hayotidagi muhim ahamiyati, ularning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki ko‘rsatkichlarini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va amaliy natijalarini qayd etdi.

Shu o‘rinda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva “O‘zkimyosanoat” AJda xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor, ularning har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni e’tirof

etdi.

Uchrashuv so‘nggida “O‘zkimyosanoat” AJ va Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Memorandumda nazarda tutilgan hamkorlik yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

•“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning tegishli bandlarini nafaqat Toshkent viloyatida, balki butun respublikamizda sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini so‘zsiz va sifatli ta‘minlash;

•Toshkent viloyatidagi “Ayollar daftari”da ro‘yxatda turgan 1000 nafar xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash va madaniy dam olishlarini ta‘minlash;

•Kasanachilikni rivojlantirish doirasida “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari xodimlarining oila a‘zolarini pillachilik va ipakchilik yo‘nalishlarida qo‘shimcha ish bilan ta‘minlash va tarmoq xodimlari oilalarining daromadini yanada oshirish;

•Aksiyadorlik jamiyatidagi oilalar va xotin-qizlarning muammolarini aniqlash va ularni hal etishga ko‘maklashish, ijtimoiy og‘ir ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish;

•Mehnat jamoasidagi xodimlar, biriktirilgan hududdagi oilalarning ma‘naviy-axloqiy holatini o‘rganish va yaxshilash, muammolarini o‘rganish va ijobiy hal etish borasida sayyor qabullar tashkil etish;

• Iqtidorli, ilmli yosh xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “O‘zkimyosanoat” AJ stipendiyasini joriy qilish;

• “O‘zkimyosanoat” jamiyatida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarni Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, “Mo‘tabar ayol”, “Ibratli oila” ko‘krak nishoniga tavsiya etib borish kabi bandlarni hamkorlikda amalga oshirish.

Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26

Uzkimyosanoat
"GENDER TENGLIK FAOLI-2023" MILLIY KO'RIK TANLOVI
"Gender tenglikni ta'minlashda eng faol davlat organi (tashkiloti)" nominatsiyasi bo'yicha I-o'rin "Navoiyazot" AJga nasib etdi.
"Maxam-Chirchiq" AJ faol ishtiroki uchun "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol shahar, davlat organi" nominatsiyasi bilan taqdirlandi va respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati